

“KELAJAK SOATI” — SENTABR OYI MASHG‘ULOT ISHLANMASI (5-8-sinflar uchun)

Oilada: Mustaqillik yillari yutuqlari muhokamasi

Ta’limiy: Mustaqillik, tinchlik va birdamlik tushunchalarining mazmuni hamda o‘zaro bog‘liqligini anglash, mustaqillik yaratgan imkoniyatlarni hayotiy misollar asosida aniqlash;

Tarbiyaviy: Vatanga sadoqat, tinchlik va millatlararo totuvlikni qadrlash, jamoada hamkorlik qilish va kelajak uchun shaxsiy mas’uliyatni his qilish;

Rivojlantiruvchi: Mustaqil fikrlash, o‘z fikrini erkin bayon etish, turli vaziyatlarni tahlil qilish, xulosa chiqarish va o‘z kelajagi bilan bog‘liq shaxsiy maqsadlarni belgilash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

I. Tashkiliy qism - 5 daqiqa

Salomlashish, davomatni aniqlash, sinfni mashg‘ulotga psixologik jihatdan tayyorlash.

O‘qituvchi: O‘quvchilar mashg‘ulotimiz avvalini keling, mavzuga oid bir ajoyib rolik bilan boshlasak.

Yagona Vatan — yagona xalq — yagona kelajak!

Mustaqilligimizning 35 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning “Seningdirman” she’rini Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi **Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi bitiruvchisi Husnirabonu Sobirova** ijro etadi.

O‘qituvchi: Qani o‘quvchilar ushbu she’rning mazmuni va ijrosi yoqdimi? Mavzuimizni to‘ldirarmikan?

- Ana endi, uyga berilgan vazifaga o‘tamiz.

II. Asosiy qism - 20 daqiqa

O‘quvchilar 4-5 kishilik guruhlariga bo‘linadi. Avval guruh ichida “Oilaviy fikr varag‘i”dagi fikrlarni bir-biriga aytib beradi. Har bir guruh eng ta’sirli 1 ta fikrni tanlaydi va guruh vakili “mikrofon” qo‘lida butun sinfga taqdim etadi.

O‘qituvchi tomonidan barcha fikrlar tinglanadi, so‘ng doskada “Oilamiz qadriyatları” mental xarita tuziladi (til, urf-odat, tarix, mehr-oqibat kabi yo‘nalishlar bo‘yicha guruhlanadi).

O‘qituvchi: Mustaqilligimizning 35 yillik tantanalarida hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Birinchi, Ikkinchi va Uchinchi Renessans haqida fikr bildirdilar. Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, **“Birinchi va Ikkinchi Renessans davrida Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Mir Alisher Navoiy kabi buyuk allomalarimiz bashariyat tafakkuri xazinasini boyitgan”**. Keling ushbu fikrdan kelib chiqib bir intellektual o‘yin o‘tkazamiz.

Sinfidagi o‘quvchilarni uch guruhga bo‘lamiz. Doskaga jadval chizib Birinchi, Ikkinchi va Uchinchi Renessans davriga oid ma’lumotlar, ixtirolar va allomalar ismlarini yozamiz. Qani kim chiqadi doskaga?



№	Birinchi Renessans	Ikkinchi Renessans	Uchinchi Renessans
1.	Muhammad Xorazmiy "Al-Jabr" asari	Mirzo Ulug'bek rasadxonasi	Yangi O'zbekiston universiteti
2.	...	...	...
3.	...	...	...

III. Mustahkamlash qismi - 10 daqiqa

Sinf 2 guruhga bo'linadi. O'qituvchi Vatanga oid maqolning boshini o'qiydi, guruhlar 15–20 soniya ichida davomini topadi. So'ng maqol ma'nosi va oilaviy suhbatdagi fikrlar bilan bog'liqligi muhokama qilinadi.

Mashg'ulotning yanada kreativ olib borish uchun maqollar bilan ishlanadi.

O'quvchilar maqollarni davom ettiradilar:

1. "Tinchlik — ..." (Tinchlik — eng ulug' ne'mat)
2. "Vatan ..." (ostonadan boshlanadi)
3. "Yurt tinch — ..." (el tinch)
4. "Birlik bor joyda — ..." (tiriklik bor)

O'qituvchi maqollarning mazmunini qisqacha sharhlaydi.

"Bir gapda xulosa" texnikasi: har bir o'quvchi (yoki tanlangan 6–7 nafari) mashg'ulotdan olgan taassurotini bir gap bilan ifodalaydi. (*Blits-so'rov*)

IV. Biz uchun muhim!

O'quvchi tomonidan Partfolio qanday tayyorlanishi tushuntiriladi: 8 daqiqa

O'qituvchi: Bolalar, portfolio tayyorlash aslida unchalik qiyin emas. Keling, birgalikda qadam-baqadam ishlaymiz.

1-qadam. Muqova tayyorlang

Uyingizdan bitta oddiy fayl-jild yoki muqova oling. Bu - sizning portfoliopingiz bo'ladi.

2-qadam. Birinchi varaqqa ismingizni yozing

Fayl-jildining birinchi varag'iga katta va chiroyli qilib shularni yozing:

1. Ism-familiyangiz
2. Sinfingiz
3. "Kelajak soati portfoliosi" deb sarlavha

3-qadam. Har bir mashg'ulotdan keyin bitta varaq qo'shing

Har safar "Kelajak soati" mashg'ulotidan keyin siz nima qildingiz, o'sha ishni (rasm, yozgan gaplaringiz, to'ldirgan jadval) fayl-jildiga solib qo'yasiz. Har bir varaqning yuqori burchagiga sanani yozishni unutmang.

4-qadam. Ishlarni tartib bilan joylashtiring

Varaqalarni oldin bajarilgani birinchi, keyingi ishlar ketma-ket tarzda joylashtirib boring. Ya'ni eng birinchi bajarilgan ish eng tepada bo'ladi.

5-qadam. O'zingiz haqingizda yozing

Alohida bitta varaqqa: "Men nimalarni yaxshi ko'raman?", "Kelajakda kim bo'lishni xohlayman?" - shu kabi savollarga qisqagina javob yozing.

6-qadam. Ishlaringizni toza saqlang

Varaqalar burishmasin, iflos bo'lmasin. Fayl-jildini doim ehtiyot qiling.

7-qadam. Har doim mashg'ulotga olib keling

Portfolio doim yoningizda bo'lsin - har "Kelajak soati" mashg'ulotiga uni olib kelasiz.

Esda tuting: Portfolio - bu sizning kichik yutuqlaringiz yig'iladigan xazina kabi narsa. Chorak oxirida uni ochib ko'rsangiz, o'zingiz qancha ish qilganingizni ko'rib, hayron qolasiz!

V. Sinfda yakuniy ko'rsatma - 2 daqiqa

O'qituvchi: O'quvchilar keyingi mashg'ulotda "Yangi O'zbekiston" loyihamizni tayyorlaymiz.! Loyihani amalga oshirish usullari (intervyu, mavzuga doir videokontent,

suhbat, rasm, taqdimot) tayyorlab kelish. O‘quvchilar guruh bo‘lib o‘zlaringiz xohlagan usulda loyiha ishini tayyorlab kelishingiz mumkin.

O‘qituvchi: Barakalla, ota-onangiz va oila-a‘zolaringizga ham alohida tashakkur. Mana shunday faol ishtirok va e‘tibor uchun. Bizning rahmatimizni albatta yetkazib qo‘ying.

O‘qituvchi:
o‘quvchilar keyingi darsda
“Yangi O‘zbekiston” loyihamizni
tayyorlaymiz.!

Loyihani amalga oshirish usullari

- intervyu
- mavzuga doir videokontent
- suhbat
- rasm
- taqdimot

O‘quvchilar guruh bo‘lib
o‘zlaringiz xohlagan usulda loyiha
ishini tayyorlab kelishingiz mumkin.

The infographic features a teacher character at the top left, the Uzbek flag at the top right, and a group of students working at a laptop at the bottom left. A lightbulb icon is placed above the bottom text box. The presentation methods are illustrated with icons: a microphone for interview, a video player for video content, two people talking for discussion, a paint palette for drawing, and a presentation screen for presentation.